



## PEDAGOGIK MAHORATNING O'QITUVCHI FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI

Ozodova Zulfiya G'ayrat qizi

Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim  
yo'nalishi. 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7540478>

### ARTICLE INFO

Received: 06<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 14<sup>th</sup> January 2023

Online: 16<sup>th</sup> January 2023

### KEY WORDS

*Pedagog, pedagogik jarayon, ta'lim jarayoni, tarbiya, pedagogik mahorat, saviya, jamiyat.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada pedagogik mahorat, uning mohiyati hamda o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati borasida so'z boradi. O'qituvchi pedagogik mahoratining vazifalari, tarkibiy qismlari ham mazkur maqolada o'z aksini topgan. Shuningdek, ushbu maqolada o'qituvchi pedagogik mahoratini rivojlantirishning bir qator usullari va ularning natijalari borasida ham so'z boradi.*

**KIRISH.** Barchamizga ma'lumki, ta'lim hamda tarbiya jarayoni bugungi kunda katta e'tibor qaratilib kelinayotgan hamda tub islohotlar olib borilayotgan jarayon hisoblanadi. Pedagogik mahorat haqida so'z yuritishdan oldin pedagogika atamasi, uning taraqqiyoti va hozirgi kundagi mohiyatiga to'xtalib o'tamiz. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hamma davrlarda har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetkazish yo'llari, usullari va qonun-qoidalarni izlaganlar. Darhaqiqat, insonning ma'rifiy va ma'naviy komillikka erishishi tarbiya deb atalmish ijtimoiy hodisa orqali amalga oshirilgan. Jamiyat rivojlangani sari yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalab, yetishtirish ehtiyoji ortib, o'zgarib, yangilanib borgan. Insoniyat jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ta'lim-tarbiya muassasalarini yaratish, yosh avlodlarni o'qitish va tarbiyalash sohasidagi tajribalarni nazariy jihatdan anglash, umumlashtirish va hayotga tatbiq qilish jarayonida pedagogika fani shakllandi.

"Pedagogika" atamasi yunincha bo'lib, "bola yetaklovchi" degan ma'noni anglatadi. Tarixiy manbalarning ko'rsatishicha, qadimgi Yunonistonda o'z xo'jayinining bolalarini sayr qildiradigan, maktabga olib boradigan qullarni "bola yetaklovchi", ya'ni tarbiyachini "pedagogos" deb atashgan. Keyinchalik esa bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanishga maxsus tayyorlangan o'qimishli donishmandlarni "pedagog" deb atay boshlaganlar.[1]

Ushbu ma'lumotdan kelib chiqib, kishilik jamiyatining dastlabki davrlarida bilimga, ilm olisha sharoit va ehtiyoj unchalik yuqori darajada bo'lmaganligini bilib olishimiz mumkin. Ayni damda esa buning aksi. Ilmli, har tomonlama yetuk yoshlarga bo'lgan ehtiyoj shunchalik kattaki, buni yaratilayotgan shart-sharoitlar, ilm-fandagi yangiliklar va imkoniyatlardan bilib olsa bo'ladi.

Barcha davrlarda yashab o'tgan olimlar pedagogika va unga doir muammolarga yechim topish maqsadida izlanishlar olib borganlar va asarlar yaratganlar. Abu Rayhon



Beruniy “Mineralogiya”, “Hindiston”, “Saydana” asarlarida, Najmiddin Kubro “Odob qoidalari”, Amir Temur “Temur Tuzuklari” kabi ma’rifiy-pedagogik asarlarida, g’arbda esa Platon “Davlat”, Aristotel “Siyosat”, Komenskiy “Buyuk didaktika”, Makarenko “Pedagogik poema”, “Bolalar tarbiyasi to’g’risida leksiylar” kabi asarlarida va o’zlarining ijodiy pedagogik faoliyatlarida pedagogikaning bosh masalasi – tarbiya muammosi va ta’lim mazmuniga turlisha munisabat bildirib, pedagogika ta’lim-tarbiya haqidagi fan ekanligini asoslab berdilar.

**ASOSIY QISM.** Albatta, ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etuvchi vositalardan biri hisoblanuvchi hamda bu jarayonda muhim o’rin tutuvchilar pedagoglardir. Ta’lim jarayonining sifatli tashkil etilishi, o’quvchi yoshlardan kutilayotgan natijalarning yuqori pog’onalarni egallashi aynan pedagoglarning pedagogik mahoratlariga bogliqdir.

Qomusiy olim Abu Nasr Forobiy ta’lim va tarbiyaga birinchi marta shunday ta’rif bergan edi: “Ta’lim, - degan so’z xalqlar va shaharliklar o’rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o’rtasidagi tug’ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so’zdir. Ta’lim faqat so’z va o’rgatish bilangina bo’ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo’lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo’lishni, o’rganishdir”. [2]

Ta’lim va tarbiya jarayonlari o’ta murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki ta’lim jarayonini tashkil etuvchi shaxs o’z zimmasiga har tomonlama yetuk bo’lgan barkamol avlodni tarbiyalashdek muhim vazifani oladi. Darhaqiqat, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da har tomonlama kamol topgan, jamiyatda ilg’or turmush tarziga moslashgan, ta’lim, Davlat ta’lim standarti talablarini ongli ravishda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, pedagogik-psixologik jihatdan puxta o’zlashtirgan, davlat va oila oldida javobgarlikni his etadigan, yoshlarni tarbiyalovchi o’qituvchi-pedagogda yuksak nazariy va metodologik tayyorgarlik hamda kasbiy pedagogik mahorat bo’lishi talab etiladi.

Shunday ekan, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash ta’lim tizimida mehnat qilayotgan o’qituvchi-pedagogning ilmiy-metodik, ijtimoiy-siyosiy saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoyiligiga, yosh avlodni o’qitish va tarbiyalash ishiga bo’lgan munosabatiga bog’liqdir. O’qituvchi-pedagog jamiyatning ijtimoiy topshirig’ini bajaradi, shunday ekan, har tomonlama yetuk mutaxassislarni tarbiyalashda u muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik-psixologik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida mehnat qilayotgan o’qituvchi-pedagoglarning ko’pchiligi ta’lim va tarbiya jarayonida pedagogik mahoratning zaruriyati va ahamiyatini chuqur anglamoqdalar. Pedagogik mahorat tushunchasi mazmunini pedagogik va psixologik adabiyotlarga asoslanib, quyidagicha ta’riflash mumkin:

Pedagogik mahorat – o’z kasbining mohir ustasi bo’lgan yuksak darajada madaniyatli, o’z fanini chuqur biladigan, yondash sohalarni yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o’qitish uslubiyatini mukammal egallagan o’qituvchi-tarbiyachiga xos xususiyat.

Pedagogik mahorat – o’qituvchining o’z fanlarini o’rganishda erishgan tajribalarni o’z faoliyatida ijodiy qo’llangan holda o’quv-tarbiya ishining hamma qirralarida eng yuqori darajada erishilgan yutuqlar.

Pedagogik mahorat – bu o’qituvchi-pedagogning shunday shaxsiy va kasbiy fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o’z fanini chuqur va atriflicha bilishida, pedagogic-



psixologik va metodik tayyorgarligida o'quvchi-talabalarni o'qitish, tarbiyalash varivojlantirishning maqbul yo'llarini izlab topib amaliy faoliyatida qo'llashida namoyon bo'ladi.[3]

Professor K. Zaripovning ta'kidlashicha, yuksak pedagogic mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'zida ham ilg'orlikni, ham ijodkorlikni, ham novatorlikni (yangilikka intilishni) tarbiyalashi lozim.[4]

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, oliy ta'li muassasalarida ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilarda yuqorida qayd qilingan o'qituvchilik mahoratiga xos sifatlarni shakllantirish lozim. Pedagogik kadrlarni tayyorlash, ularning o'qituvchilik kasbiga moslasha olishi, keng ma'nodagi o'qituvchining pedagogik mahoratining shakllanishiga bo'lgan talabga muvofiq holda pedagogik-psixologik bilimlarning nazariy va amaliy asoslarini egallashda aks etmog'i lozim.

### References:

1. N. S. Atayeva, F. Rasulova, M. Salayeva, S. Hasanov. Umumiy pedagogika. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. I kitob. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2012.
2. Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. Risolalar. – Toshkent: "Fan", 1975.
3. N. Atayeva, M. Salayeva, S. Hasanov. Umumiy pedagogika (Pedagogika nazariyasi va amaliyoti asoslari). O'quv qo'llanma. II kitob. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2015.
4. K. Zaripov. O'qituvchilar malakasini oshirishda maktab rahbarining roli. – Toshkent: "O'qituvchi", 1993